

## KIT-ENG YIRIK HAYVON

**Qudratova Dilxumor**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Biologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Yer yuzidagi barcha hayvonot va o'simlik olami juda ham rang barang bo'lib, har biri alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Har bir tirik organizmning o'z vazifasi va o'rnini bor. Lekin hozirgi kunda o'simlik qoplami va hayvonot olami keskin kamayib bormoqda va ayrim turlar esa butkul yo'qolib ketish arafasida. Shu sababdan turli mintaqalarda uchragan hayvonlar keyinchalik ayrim hududlardagina uchrashi kuzatilmoqda. Kitlar ham huddi shunday hayvonlar toifasiga kiradi.

Dunyo- Hayvon-Zoa

Kenja dunyo-Ko'p hujayralilar-Metazoa

Bo'lim- Haqiqiy ko'p hujayralilar- Eumetazoa

Tip- Xordalilar- Chordata

Kenja tip- Boshskeletlilar(umurtqalilar)- Craniata (vertebrata)

Guruh- murtak pardalilar- Amniota

Sinf- Sutmizuvchilar- Mammalia

Turkum- Kitsimonlar- Cetacea

Oila- Tishsiz kitlar- Mustacoceti

Tur- Ko'k kit- Balaenoptera musculus

Ko'k kitlar hayvonot olamidagi eng yirik hayvon hisoblanadi. Ularning tuzilishi va hayoti suvda yashashga moslashgan bo'lib, og'irligi 150-160 tonna gacha, uzunligi esa 30-33 m gacha boradi. Ular asosan Uzoq sharq va Shimoliy dengizlarda uchraydi. Gavdasi duksimon, baliqsimon, oldingi oyoqlari kurakka aylangan, orqa oyoqlari yo'qolib ketgan, baliq dumiga o'xshash dum rivojlangan, lekin dum vertikal emas balki, gorizontaal o'rnashgan bo'ladi. Bo'yni mutlaqo bilinmaydi. Ularning terisi juda elastik bo'ladi. Terisi ostida joylashgan yarim suyuq, qalinligi 50 sm keladigan yog'i ularni sovuqdan himoya qiladi. Shuning uchun ular sovuq dengizlarda ham suza olishadi.

Ularning ko'payishiga keladigan bo'lsak, homiladorlik davri 11oy davom etadi. Kitlar asosan ikki yilda bir marta bolalaydi va 6-9 metrli 1ta bola tug'adi. Tug'ish paytida dumini suvdan yuqoriga ko'taradi va bolasi dumi bilan oldinga qarab tug'iladi. Kit suvda yashashiga qaramay bolasini sut bilan boqqani uchun uni sutmizuvchilar sinfiga kiritamiz. Kit suti tarkibida 38-54% yog' bor. Bolasi 4-8 oy onasini emadi va 3-6 yilda jinsiy voyaga yetadi. Tug'ilgan bolasining og'irligi 2-3 tonnaga boradi. 7 oylik bolasining uzunligi 16metr va og'irligi 23 tonnaga yetadi. Kitlar muntazam migratsiya qilib turishadi. Ko'pchiligi 3-5 tadan kichik to'da

bo`lib yashaydi. Ular soatiga 5-15 km tezlikda suzishadi. Agar biror xavf sezishsa yoki yarador bo`lsa soatiga 35-55 km tezlikda suzaoladi.

Kitlar bahaybat bo`lishiga qaramay mayda ozuqalar bilan oziqlanadi. Buning asosiy sababi tomog`ining diametri atigi 10 santimetr. Shuning uchun ular katta oziqni o`zlashtira olmaydi. Ularning asosiy oziq manbai qisqichbaqasimonlar hisoblanadi. Bir kecha-kunduzda 2-4 tonna oziq yeydi. Oshqozoni 3tonnadan ortiq oziqni sig`dira oladi. Og`iz bo`shlig`ida juda ko`p miqdorda mo`ylov plastinkalari joylashgan bo`ladi va ularning soni 360-800 taga boradi.

Tadqiqot natijalariga ko`ra kitlar 20-50 yil yashashi mumkin. Lekin, so`ngi vaqtlarda ko`plab ovlashlari natijasida kamayib bormoqda, avvalari Shimoliy Atlantikada uchragan bo`lsa hozirgi vaqtda deyarli uchramaydi. Shu sababdan ularni noyob tur sifatida 5 ta turi Xalqaro “Qizil kitob” ga kiritilgan. Ular sonining kamayishining asosiy sabablaridan biri ko`plab ovlashlari hisoblanadi. Chunki, ulardan sanoatda keng foydalaniladi. Iqtisodiy ahamiyati ham juda katta hisoblanadi. Yog`idan glitserin, margarin va sovun, go`shtidan konserva tayyorlanadi, suyagidan chorva mollari va parrandalar uchun un tayyorlanadi, jigarida esa “A” vitamini ko`p bo`ladi. 30 metrli kitdan 27-30 tonna yog`, 60-65 tonna go`sht olingan. 1 kilogramm go`shti Yaponiyada 160 dollar turadi. Kitlarni ovlash 1970-yildan boshlab taqiqlangan va muhofaza ostiga olingan. Kitlarning kamayish sabablaridan yana biri okeanlarning neft, turli zavodlarning keraksiz chiqindilari bilan ifloslanishi, dengizdan sayozlikka chiqib qolishlari ham sabab bo`lmoqda.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, tabiatga va uning resurslariga extiyotkorona muomala qilishimiz kerak. Buning uchun har bir insonda ekologik madaniyatni rivojlantirishimiz kerak. Eng avvalo har kim o`z yashab turgan joyidagi o`simlik va hayvonlarga e`tiborli bo`lishi, ularga zarar yetkazmasligi lozim. Yovvoyi tabiatdagi hayvonlarni esa o`z holiga qo`yishi ularni turli maqsadlarda ovlamasligi kerak. Yo`qolib borayotgan hayvonlarni himoya qilish va erkin ko`payishi uchun sharoit yaratishi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Umurtqalilar zoologiyasi” J. L. Laxanov, “Zoologiya” J. Urchinov, “Zoologiya” S. Dadayev